

Akad. M.Mirsaidov va prof. A.Salohiddinovlarning MChJ O'zGIP Loyiha institutidagi yoshlar bilan uchrashuvi

20 - aprel 2018 yilda akad.M. Mirsaidov va prof. A. Salohiddinovlar MChJ O'zGIP Loyiha institutida TIQXMMIning oxirgi yillarda bitirgan hozirgi kunda MChJ O'zGIP Loyiha institutida muvaffaqiyatli ishlab kelayotgan TIQXMMI ning sobiq talabalari bilan uchrashishdi.

Bu uchrashuvni shu MChJ O'zGIP Loyiha institutining direktori U.V.Abdullaev tashkil qilib, loyihada o'z ilmiy yechimini topishi kerak bo'lgan muammolar bilan uchrashuv qatnashchilarini tanishtirdi.

Bu uchrashuvning asosiy maqsadi shu loyiha institutida muvaffaqiyatli ishlayotgan yoshlarni, kelgusida loyihada uchrayotgan ilmiy muammolarni hal qilishda faol qatnashishlarini ta'minlash va bu yoshlardan kelgusida oliy malakali yosh mutaxassislar tayyorlash edi.

MChJ O'zGIP Loyiha instituti rahbari U.V. Abdullaev tomonidan qo'yilgan ilmiy muammolar yechimlarini topish va yoshlarni ilmga jalb qilish bo'yicha M.Mirsaidov va A.Salohiddinovlar o'z fikrlarini bildirishdi.

M.Mirsaidov va A.Salohiddinovlar kelgusida yoshlar bilan birgalikda qo'yilgan ilmiy muammolarni yechishda faol ishtirok etishlarini bildirishdilar.

